

**Energetika vazirligida manfaatlar to'qnashuvi holatlarini boshqarish
borasida amalga oshirilgan ishlar xususida
HISOBOT**

Vazirlikning 2025-yil uchun tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturida belgilangan vazifalar doirasida vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashishning preventiv choralarini kuchaytirishga oid ishlar amalga oshirildi.

Xususan, 2025-yil davomida vazirlikda faoliyat yuritgan **149 nafar** rahbar va xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari to'ldirildi. To'ldirilgan deklaratsiyalar "Energetika vazirligida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom" talablari asosida tahlil qilib chiqildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida vazirlikda faoliyat yuritib kelayotgan ba'zi xodimlarning tadbirkorlik subyektlarida ta'sischiilik asosida faoliyat yuritib kelayotganliklari aniqlandi. Xususan:

- Energetika vazirligi huzuridagi Yoqilg'i-energetika sohasini isloh qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha loyiha ofisi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish boshqarmasi boshligi o'rinbosari **Sobirov Otabek G'anisher o'g'lining** "HUDUD ENERGO LOYIHA" MCHJda;

- Yoqilg'i-energetika sohasini isloh qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha loyiha ofisi Kichik va mikro gidroelektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirish guruhi bosh mutaxassisi **Yavkochev Said Toshtemirovichning** "PROJECT AND LABORATORY KSN" MCHJda;

- Innovatsiya, mahalliyashtirish va xalqaro standartlarni joriy qilish bo'limi boshlig'i **Yuldashev Narbek Xudoynazarovichning** "USTA" xususiy korxonasida;


- Yoqilg'i-energetika sohasini isloh qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha loyiha ofisi kichik va mikro gidroelektr stansiyalari loyihalarini amalga oshirish guruhi boshlig'i **Avloqulov Umid Asadullo o'g'lining** "SOLAR POWER" MCHJda;

- Yoqilg'i-energetika sohasini isloh qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha loyiha ofisi bosh mutaxassisi **Toxtaxunov Kasim Abdukadirovichning** "BIO SMART FACTORY" MCHJda ta'sischiilik asosida faoliyat yuritib kelayotganliklari aniqlanib, o'tkazilgan tegishli tushuntirish suhbatlari va ogohlantirishlardan so'ng ularning tadbirkorlik faoliyatlarini to'xtatishlariga erishildi.

Ko'rsatilgan xodimlar bilan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi O'RQ-788-son "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risidagi" Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi "Tadbirkorlik faoliyati bilan

shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risidagi" 103-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat fuqarolik xizmatchilarining odob-ahloqining namunaviy qoidalari" bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'yicha bosh mutaxassis**



A.Zaynutdinov